ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yil yanvar-avgust oyida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi



Andijon – 2022 y.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta’minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste’mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo‘sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi
61,9 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi
67,1 %

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
3 367,4 ming so‘m

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
11 006,9 mlrd. so‘m

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati
109,2 %

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati
111,5 %



2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-avgust oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **11 006,9** mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2022- yil yanvar-avgust oyida)



2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari *(2022- yil yanvar-avgust oyida)*	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	11 006,9	111,5
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	532,8	125,6
Moliyaviy xizmatlar	2287,0	114,5
Transport xizmatlari	2196,1	108,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2135,7	108,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	201,2	113,0
Savdo xizmatlari	3447,1	107,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	298,0	111,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	471,2	120,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	180,8	106,9
Ijara xizmatlari	265,3	116,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	247,7	108,9
Shaxsiy xizmatlar	536,7	111,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	87,7	123,6
Boshqa xizmatlar	255,4	108,3

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Savdo xizmatlari	31,3 %
Moliyaviy xizmatlar	20,8 %
Transport xizmatlari	20,0 %
Shaxsiy xizmatlar	4,9 %
Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari	4,8 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,3%
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,7%

Nisbatan past ko'rsatkich

Ijara xizmatlari	2,4%
Boshqa xizmatlar	2,3%
Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar	2,3%
Yashash va ovqatlanish xizmatlar	1,8%
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,6 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlari	0,8 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-avgust oyida ularning ulushi **31,3** % ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlari hajmida eng past o‘sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,8** % ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oyida savdo xizmatlari umumiy hajmda **30,0** % ni tashkil etdi. 2021- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo‘lgan – **0,7** %.

2022- yil yanvar-avgust oyida yuqori o‘sish savdo hizmatlari (**31,3** %), moliyaviy sohasida (**20,8** %), transport hizmatlari (**20,0** %), qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oyida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o‘sish sur'atlari qayd etildi (156,8 %).

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yil yanvar-avgust oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,3** % ni tashkil etdi, bu esa **3 447,1** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oyida ularning hajmi **2 848,9** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **30,0** % iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2021- y. yanvar-avgust

Xizmatlar hajmi
2 848,9 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
117,2%

Ulushi
30,0 %

2022 y. yanvar-avgust

Xizmatlar hajmi
3 447,1 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
107,8 %

Ulushi
31,3 %

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

2022- yil yanvar-avgust oyida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i **82,4** % ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi

(2022- yil yanvar –avgust oyida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar-avgust oyida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi **2 287,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oyida ularning hajmi **1 969,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **20,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oyida ularning ulushi **24,9** % ni tashkil etgan.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 14,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oyida ularning o'sish sur'ati 56,8 % ga yetgan.

2022- yil yanvar-avgust ***Dastlabki ma'lumotlar***

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **79,7** % ni tashkil etdi.

2022-yilning avgust oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **4,6** % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2022- yil yanvar-avgust oyida)



2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2022- yil yanvar-avgust oyida)

2021- y. yanvar-avgust		2022 y. yanvar-avgust
421,2 mlrd. so'm	Xizmatlar hajmi	532,8 mlrd. so'm
111,6 %	O'sish sur'ati	125,6 %
4,4 %	Jami hajmdagi ulushi	4,8 %

Hajmning o'sishi

111,6 mlrd. so'mga

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **96,2** % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- y. yanvar-avgust		2022- y. yanvar-avgust
347,5 mlrd. so'm	Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi	471,2 mlrd. so'm
128,3 %	O'sish sur'atlari, % da	120,8%

2022- yil yanvar-avgust oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **471,2** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,3** % ni tashkil etdi. 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-avgust oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 347,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish 128,3 % darajasi qayd etilgan.

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

	2021- y. yanvar-avgust	2022- y. yanvar-avgust
Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	150,3	201,2
O'sish sur'ati, % da	108,6	113,0

2021- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **50,9** mlrd. so'mga ortdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar-avgust oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,3** % bilan ustunlik qildi.

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y. yanvar-avgust		2022- y. yanvar-avgust
157,7 mlrd. so'm	Xizmatlar hajmi	180,8 mlrd. so'm
109,1 %	O'sish sur'ati	106,9 %
1,5 %	Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi	1,6 %

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o’sish sur’atlari, % da

(2022- yil yanvar-avgust oyida)



2022- yil yanvar-avgust oyida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **33,4** % (2021- yilda **34,4**%). Xizmat ko‘rsatish sohasining eng past ko‘rsatkichlari Bo'ston tumanida **2,4** % (2021- yilda **1,4** %) qayd etildi.

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2022 yil yanvar-avgust)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022 y.	2021 y.
Andijon viloyati	11 006,9	111,5	125,1
Shahar:			
Andijon sh	3 678,6	112,6	127,6
Xonaobod sh	352,0	108,0	120,0
Tumanlar:			
Oltinko'l	507,5	111,5	125,2
Andijon	634,9	111,7	124,3
Baliqchi	547,9	111,8	125,4
Bo'ston	268,0	107,0	119,5
Buloqboshi	417,2	111,4	122,7
Jalaquduq	430,3	111,6	121,4
Izboskan	496,5	110,7	125,1
Ulug'nor	276,2	107,1	119,7
Qo'rg'ontepa	663,6	111,9	125,7
Asaka	712,1	112,1	127,0
Marhamat	433,0	111,0	121,5
Shahrixon	669,8	112,0	126,6
Paxtaobod	535,1	110,5	122,9
Xo'jaobod	384,1	110,2	123,6

*) *hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 367,4 ming so'm

Hajmning o'sishi

501,4 ming so'mga

109,2 %

O'sish sur'ati

2022- yil yanvar-avgust oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 367,4** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan o'sish sur'ati **109,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-avgust oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 866,0** ming so'mni tashkil etgan.

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni: **27 104 birlik**

2021- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi: **1 792 birlikga**

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari: **107,1 %**

Ularning umumiy sonidagi ulushi: **61,9 %**

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

2022- yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 61,9 %, sanoat 22,2 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 8,3 % ga yetdi. Qurilish sohasi 7,6 % ga to'g'ri keladi.

2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2021- yilning **1**- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,1** %, sanoat **23,1** %, qurilish **8,2** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,6** % ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar-avgust *Dastlabki ma'lumotlar*

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2022- yil yanvar-avgust oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **67,1** % ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,0** % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: 74-228-30-83